



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING QOBILIYAT, QIZIQISH VA O'RGANISH USULLARINI HISOBGA OLGAN PEDAGOGIK METODLAR VA DARS REJALARI

Abdullaeva Gulmira

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida assistenti

Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi

Nukus davlat pedagogika instituti
 Ellikqal'a fakultetida Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish usullarini hisobga olgan holda pedagogik metodlar hamda dars rejalarini ishlab chiqish masalasi yoritilgan. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlarning boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish ularning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni ongli o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagogik metod, dars rejasi, qobiliyat, qiziqish, o'rganish usullari, individual yondashuv, differensial ta'lim.

Abstract: This article examines the development of pedagogical methods and lesson plans that take into account the abilities, interests and learning styles of primary school pupils. The paper highlights the importance of learner-centered education, differentiated approaches, interactive methods and creative tasks in improving the effectiveness of primary education. It also substantiates that considering pupils' individual characteristics positively influences their classroom activity, independent thinking and conscious acquisition of knowledge.

Key words: primary education, pedagogical method, lesson plan, abilities, interest, learning styles, individual approach, differentiated education.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос разработки педагогических методов и планов уроков с учетом способностей, интересов и способов обучения учащихся начальных классов. Особое внимание уделяется значению лично ориентированного обучения, дифференцированного подхода, интерактивных методов и творческих заданий в повышении эффективности начального образования. Также обосновывается, что учет индивидуальных особенностей учащихся положительно влияет на их активность на уроке, развитие самостоятельного мышления и осознанное усвоение знаний.

Ключевые слова: начальное образование, педагогический метод, план урока, способности, интерес, способы обучения, индивидуальный подход, дифференцированное обучение.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining intellektual, ijtimoiy, emotsional va ijodiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu davrda o'quvchilarda bilim olishga munosabat, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, topshiriqlarni bajarish, o'z qobiliyatini namoyon etish kabi asosiy o'quv faoliyati ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyat darajasini, qiziqishlarini va o'rganish usullarini hisobga olish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi ta'lim jarayonida barcha o'quvchilarga bir xil usulda bilim berish kutilgan natijani har doim ham ta'minlay olmaydi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni turlicha qabul qiladi: ayrimlari ko'rish orqali, ayrimlari eshitish orqali, boshqalari esa amaliy harakat, tajriba, rasm, o'yin yoki muammoli vaziyatlar orqali tezroq o'zlashtiradi. Shuningdek, ularning qiziqishlari ham turlicha bo'ladi: kimdir rasm chizishga, kimdir hikoya tuzishga, kimdir hisoblashga, kimdir esa jamoaviy o'yinlar orqali o'rganishga moyil bo'ladi. Demak, o'qituvchi

dars jarayonida o'quvchilarning shu jihatlarini chuqur kuzatishi, aniqlashi va dars metodlarini shunga mos tanlashi zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, boshlang'ich ta'limda o'quvchining tabiiy qobiliyati va qiziqishiga tayanilgan holda tashkil etilgan darslar bolaning faolligini oshiradi, bilimni ongli o'zlashtirishiga yordam beradi hamda mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bunday yondashuvda o'quvchi faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. O'qituvchi esa yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va imkoniyat yaratuvchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual imkoniyatlarini hisobga olgan pedagogik metodlar dars mazmunini yanada jonli, tushunarli va qiziqarli qiladi. Masalan, guruhli ishlash, rolli o'yinlar, klaster, aqliy hujum, muammoli savollar, rasm asosida hikoya tuzish, amaliy mashqlar, didaktik o'yinlar, ijodiy topshiriqlar kabi metodlar o'quvchilarning turli qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali bilim berish jarayoni bir tomonlama tushuntirishdan iborat bo'lib qolmaydi, balki izlanish, kuzatish, solishtirish, fikr bildirish va xulosa chiqarish faoliyati bilan boyiydi.

Dars rejasini tuzishda ham o'quvchilarning qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Rejada darsning maqsadi, kutilayotgan natijalar, qo'llaniladigan metodlar, baholash shakllari va individual yondashuv imkoniyatlari aniq belgilanishi kerak. Ayniqsa, kuchli, o'rta va yordamga muhtoj o'quvchilar uchun moslashtirilgan topshiriqlar berish dars samaradorligini oshiradi. Bu esa har bir bolaning o'z imkoniyati darajasida rivojlanishiga sharoit yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan holda pedagogik metodlar hamda dars rejalarini ishlab chiqish masalasi o'zbek pedagogika ilmidan ham muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda R. Mavlyanova va N. Raxmonqulova ^[1], N.N. Azizxo'jayeva ^[2], O'. Tolipov va M. Usmonboyevaning ^[3] ilmiy-metodik qarashlari mavzuning nazariy va amaliy asoslarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

R. Mavlyanova va N. Raxmonqulovanning "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishda bolaning yosh xususiyatlari, bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ta'limga qiziqishini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi ^[1]. Ushbu manbada boshlang'ich ta'lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Bu nuqtayi nazar mazkur mavzu uchun muhimdir, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatini aniqlash, qiziqishini rag'batlantirish va ularning o'rganish usullariga mos metodlarni tanlash aynan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablariga mos keladi. Mualliflar tomonidan boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatilgani dars rejalarini faqat an'anaviy tushuntirish asosida emas, balki o'yin, suhbat, kuzatish, amaliy mashq, ijodiy topshiriq va guruhli faoliyat bilan boyitish zarurligini asoslaydi.

Xususan tadqiqotchi, N.N. Azizxo'jayevaning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanmasi pedagogik jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik munosabati, darsni tashkil etish madaniyati va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalarini yoritadi ^[2]. Ushbu manbaning mavzuga aloqador jihati shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir o'quvchining individual imkoniyatini ko'ra olishi, dars jarayonida bolalar bilan to'g'ri pedagogik muloqot o'rnatish va mos metodlarni tanlay olishi lozim. Azizxo'jayeva qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, o'quvchining qobiliyatini rivojlantirishda metodning o'zi yetarli emas, balki o'qituvchining pedagogik mahorati, rag'batlantirish usuli, savol berish madaniyati va topshiriqni o'quvchi darajasiga moslashtira olishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli dars rejasida faqat mavzu, maqsad va mashqlar emas, balki o'quvchilarning faolligini oshiruvchi metodlar, baholash mezonlari va individual yondashuv imkoniyatlari ham aniq belgilanishi kerak.

Shuningdek, O'. Tolipov va M. Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" asarida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, dars maqsadi va natijalarini aniq belgilash masalalari yoritiladi ^[3]. Bu manba boshlang'ich sinf darslarini rejalashtirishda metodik izchillikni ta'minlash uchun muhimdir. Chunki o'quvchilarning qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olish tasodifiy emas, balki oldindan puxta o'ylangan pedagogik loyihalashni talab qiladi. Masalan, dars rejasida kuchli o'quvchilar uchun ijodiy va mustaqil topshiriqlar, o'rta va yordamga muhtoj bolalar uchun esa bosqichma-bosqich bajariladigan sodda topshiriqlar berilishi mumkin. Tolipov va Usmonboyeva qarashlari darsni maqsad, mazmun, metod, vosita va natija uyg'unligida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olish samarali ta'limning muhim shartidir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan holda pedagogik metodlar hamda dars rejalarini ishlab chiqish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy-metodik yondashuvlar asosida o'rganiladi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv, rivojlantiruvchi ta'lim va faoliyatga asoslangan pedagogik qarashlar tashkil etadi. Bu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini aniqlash, ularning bilimni qabul qilish usullarini kuza-tish, qiziqishlariga mos o'quv topshiriqlarini tanlash hamda dars jarayonida har bir bolaning faolligini ta'minlash imkonini beradi. Tadqiqotda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish faolligi, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy qobiliyati va o'quv motivatsiyasini hisobga olish asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, pedagogik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va dars ishlanmalarini tahlil qilish metodlaridan foydalaniladi. Kuzatish metodi orqali o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, topshiriqlarga munosabati, qaysi faoliyat turida faolroq namoyon bo'lishi aniqlanadi. Suhbat metodi o'quvchilarning qiziqish-lari, o'qishga bo'lgan munosabati va o'ziga qulay o'rganish usullarini bilishga xizmat qiladi. Pedagogik tahlil va taqqoslash orqali turli metodlarning samaradorligi baholanadi, dars rejalaridagi topshiriqlar o'quvchilarning qobiliyat darajasiga mosligi jihatidan o'rganiladi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun individual imkoni-yatlarni hisobga olgan, interfaol va samarali dars tashkil etishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usul-larini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar an'anaviy bir xil yondashuvga asoslangan darslarga nisbatan samaraliroq natija beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlari inobatga olinganda, ularning faolligi, mustaqil fikrlashi, savollarga javob berishdagi ishtiroki va topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ayniqsa, rasm, o'yin, suhbat, guruhli ish, ijodiy topshiriq, muammoli savol va amaliy mashqlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mavzuni tezroq anglaydi hamda o'z fikrini erkin ifodalashga harakat qiladi. Bu holat boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars mazmuni nafaqat tushunarli, balki qiziqarli va faol ishtirokni talab qiladigan shaklda berilishi zarurligini ko'rsatadi.

Kuzatishlar asosida aniqlanishicha, o'quvchilarning o'rganish usullari bir-biridan farq qiladi. Ayrim o'quv-chilar ko'rgazmali vositalar, rasmlar va jadvallar orqali bilimni yaxshi o'zlashtirsa, boshqalari eshitish, suhbat-lashish yoki amaliy harakatlar orqali mavzuni yaxshiroq tushunadi. Shuningdek, ba'zi bolalar mustaqil ishlashga moyil bo'lsa, ayrimlari juftlikda yoki guruhda ishlaganda faolroq bo'ladi. Shu sababli dars rejasida faqat bitta metodga tayanish yetarli emas. Har bir mavzuni o'quvchilarning qobiliyat darajasi va qiziqishlariga mos tarzda turli faoliyat turlari bilan boyitish dars samaradorligini oshiradi.

Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'limda individual yondashuv o'quvchini boshqalardan ajratish emas, balki har bir bolaning imkoniyatini ochib berish vositasidir. O'qituvchi o'quvchi-larning bilim darajasi, nutqiy faolligi, ijodiy fikrlashi, diqqat barqarorligi va qiziqishlarini inobatga olib darsni tashkil etsa, sinfdagi barcha bolalar o'z imkoniyati darajasida ta'lim jarayonida ishtirok eta oladi. Masalan, yuqori darajadagi o'quvchilarga mustaqil va ijodiy topshiriqlar, o'rtacha darajadagi o'quvchilarga yo'naltiruvchi savollar, yordamga muhtoj o'quvchilarga esa soddalashtirilgan va bosqichma-bosqich bajariladigan mashqlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, natijalar pedagogik metod va dars rejasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Agar dars rejasi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilsa, tanlangan metodlar ham aniq maqsadga xizmat qiladi. Bunday yondashuvda darsning kirish, asosiy va yakuniy qismlari o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga va o'zlashtirish darajasiga mos bo'ladi. Natijada darsda faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va o'zini namoyon etish ko'nikmalari ham shakl-lanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan holda pedagogik metodlar hamda dars rejalarini ishlab chiqish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining individual imkoniyati, bilimni qabul qilish tezligi, ijodiy faolligi va qiziqishlari inobatga olingan darslarda bolalar mavzuni chuqurroq anglaydi, mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga va faol ishtirok etishga intiladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar, differensial topshiriqlar, ko'rgazmali vositalar, o'yin texnologiyalari va ijodiy mashqlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi dars rejasini tuzishda faqat mavzu mazmunini emas, balki har bir bolaning qobiliyati va o'rganish ehtiyojini ham hisobga olishi zamonaviy boshlang'ich ta'limning asosiy talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlyanova R., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2013.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sano-standart, 2017.
5. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik. Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.